



## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDA XALQ ERTAKLARI VA HIKOYALAR ORQALI AXLOQIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNI DIDAKTIK USULLARI**

*Iminjanova Durdona Abduqaxxor qizi*

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*Boshlang‘ich ta’lim mutaxassisligi*

*ТТВ-AU-25 Magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola etnopedagogikaning didaktik imkoniyatlarini boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida yoritishning muhim ahamiyati haqida yozilgan bo‘lib, qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazish zaruriyati haqida aytib o‘tilgan. Asrlar davomida saqlanib kelayotgan bu qadriyatlar o‘quvchilarga tarbiyaning eng dolzarb masalalari yechimini hal qilishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. .

**Kalit so‘zlar:** Etnopedagogika, maqol, masal, topishmoq, dars, nutq, tovush, ta’lim, pedagogika, rivojlantirish, , metodika, faoliyat, natija.

## **МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАРОДНЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ УЧЕБНИКОВ ПО ГРАМОТНОСТИ ЧТЕНИЯ**

**Аннотация.** В данной статье написано о важности освещения дидактических возможностей этнопедагогике на уроках читательской грамотности в начальной школе, необходимости передачи ценностей из поколения в поколение. Эти ценности, сохранившиеся веками, отличаются тем, что они направлены на решение самых актуальных вопросов образования учащихся. .



**Ключевые слова:** Этнопедагогика, пословица, поговорка, загадка, урок, речь, звук, образование, педагогика, развитие, методика, деятельность, результат.

## METHODOLOGY OF USING FOLK PEDAGOGICAL SOURCES IN PRIMARY CLASS READING LITERACY TEXTBOOKS

**Abstract.** This article is written about the importance of highlighting the didactic possibilities of ethnopedagogy in primary school reading literacy classes, and the need to transmit values from generation to generation. These values, which have been preserved for centuries, are distinguished by the fact that they are aimed at solving the most pressing issues of education for students.

**Key words:** Ethnopedagogy, proverb, riddle, lesson, speech, sound, education, pedagogy, development, methodology, activity, result.

**Kirish (Introduction).** Bugungi kunda har tomonlama yetuk, o'z xalqi va vataniga fidoiy, jismoniy barkamol yoshlarni tarbiyalashda xalq pedagogikasining barcha imkoniyatlaridan foydalanish maqsadida boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darsliklarida maqol, topishmoq, masal, ertak, rivoyat, xalq qo'shiqlari, an'ana va marosimlari mavzular tarkibida bayon etilgan. Chunki xalq pedagogikasi manbalarida xalqimizning ijtimoiy hayot haqidagi tushunchalari, uning estetik qarashlari, axloqiy tarbiya qirralari, urf-odati, uzoq tarixi, dunyoqarashi va orzu-umidlari namoyon bo'ladi Etnopedagogikada umuminsoniy yuksak ma'naviy-axloqiy qadriyatlar jamlangan: hayot, muhabbat, vatan, salomatlik, ozodlik, e'tiqod, xotira... O'tmishga har bir murojaat esa bugunni poklaydi, kelajakni boyitadi. Etnopedagogika abadiy hayot baxsh etuvchi manba, har bir inson va butun xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi o'rtasidagi jonli ko'prikdir, deydi etnopedagogika asoschilaridan biri G.N.Volkov.



Bu kabi tushunchalar yosh avlod qalbida milliy g‘ururni, vatanparlikni ulug‘laydi hamda o‘quvchining nutqi ravonligi, og‘zaki fikrini, matn yuzasidan ijodiy hamda tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash kabi hozirgi maktab darsliklariga qo‘yilgan 4K ko‘nikmalarining (kritik fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikatsiya, kollaboratsiya) ham rivojlanishiga ham turtki bo‘ladi, deb hisoblayman. Masalan, 3-sinf O‘qish savodxonligi darsligi 1-qismida “Insoniy fazilatlar to‘g‘risida maqollar” mavzusi keltirilgan. Avval o‘quvchilarga “ Fazilat nima? Salbiy xislat deganda nimani tushunasiz?

Misol keltiring. Sizningcha, eng yaxshi insoniy fazilatlar qaysi? Nima deb o‘ylaysiz, fazilatlarni qanday shakllantirish mumkin? Salbiy xislatlardan qutulsa bo‘ladimi?” mazmunidagi topshiriq berilgan. Bu sinf jamoasi bilan birgalikda tahlil qilinib, fan o‘qituvchisining fikrlari ham o‘rganilganidan so‘ng, maqollar keltirilgan. Maqollarni o‘qib tahlil qilishganidan so‘ng, maqol haqida to‘liq ma’lumot berilgan[2]. Maqollar xalq tomonidan yaratilgan hikmatli iboralardir.

MAqollar xalq donishmandligi ramzi hisoblanadi. Chunki ular xalqning hayotiy tajribalari va kuzatishlari asosida yaratiladi. Maqollar og‘izdan-og‘izga o‘tib, soda, tushunarli va ixcham ko‘rinishda bizgacha yaetib kelgan. Ularni qo‘llash nutqning ta’sirchanligini oshiradi. Maqollarda bildirilgan fikrlarga amal qilish esa insonni go‘zal fazilatlar egasiga aylantiradi.

Maqol so‘zining turli tillarda turlicha atalishiga e’tibor bering. Maqol — o‘zbekcha

Пословица — ruscha Sprichwort – nemischa Proverbio – italyancha Proverbe – fransuzcha Proverb–inglizcha

Metodlar. Методы (Methods) Etnopedagogika xalqimizning qahramonona o‘tmishi, milliy qadriyatlari, tarixi, urf-odatlarini, ta’lim-tarbiyadagi ilg‘or g‘oya va tajribalarini o‘zida aks ettiradi.

Ana shu bebaho merosni o‘rganish va undan o‘quv tarbiya jarayonida



foydalanish uchun, avvalo, xalq ommasi to'plagan pedagogik ma'lumotlar, bilimlar, ko'nikma va malakalar qanday manbalardan olinishini bilishimiz kerak. Zotan, xalq pedagogikasi manbalarida qator o'ziga xoslik va takrorlanmaslik mavjuddir. Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq[4]. Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Xalqning milliy qadriyat, an'analarini ham boshlang'ich sinfdanoq o'quvchilar qalbiga singdirib borish bilan ona Vatanga muhabbatini yanada oshirish lozim.

### **Natijalar. Mulohaza. РЕЗУЛЬТАТЫ (Result and discussion)**

Xalq aqlli kishilarni bejizga dono deb atamaydi. Ularning o'z mulohazasi, ziyrakligi, insonlarga kerakli va foydali narsalarni o'ylab topadi. Xalqimizning mana shunday buyuk ajdodlarga bo'lgan hurmatini, kelajak avlodlarga qoldirib ketgan katta ilmiy, ma'naviy va madaniy merosini yosh avlod ongiga singdirish uchun kichik maktab yoshidan boshlab tizimli ishlar qilinmog'i lozim.

Dunyo tan olgan ushbu shaxslar o'z iste'dodlarini bolaligidan shakllantirib, bilim olib o'z tanlagan yo'lida ulkan natijalarga erishish uchun doimo o'qib izlanganligini anglagan avlod vaqtini bebaho ne'mat bilib, undan unumli foydalanadi, deb baralla ayta olamiz. Bu fikrlarni bejizga keltirmadi.

2024-2025-o'quv yili uchun nashr qilingan ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida xalq pedagogikasi manbalaridan juda ko'plab foydalanilgan. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida etnopedagogika namunalarini o'rgatish metodikasining vazifalari - xalq pedagogikasining ta'lim-tarbiyaga oid boy tajribasi, tarbiya usullari, insoniy fazilatlar va qadriyatlar, xalq



pedagogikasining sharqona va turkona an'analari, ta'lim-tarbiya jarayonlarining xalq og'zaki ijodida, milliy urf-odatlarda, diniy ta'limotlarda ifodalanish masalalarini o'rganish hamda kelajak avlodga uning mazmun mohiyatini tushuntirishdan iborat. O'zbek xalqining o'tmishdagi tarixiy tajribasi, ma'naviy, madaniy, ijtimoiy hayoti, oilada farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalarni ilmiy jihatdan to'la bilish uning kelajakdagi taraqqiyot yo'lini aniq belgilab beradi.

Etnopedagogika - etnik guruhlarning ta'lim tarbiya borasidagi tajribalari, oila, urug', avlod, millatning qadimiy qadriyatlariga ma'naviy, botiniy va zohiriy qarashlari haqidagi fandır. U xalq pedagogikasidan zamonaviy sharoitlarda foydalanish yo'llarini ko'rsatadi, etnik guruhlarning bu boradagi tajribalarini yig'adi va tatbiq etadi. Boshqacha qilib aytganda, etnopedagogikani turli xalqlar tarbiyasining tarixi va nazariyasi sifatida ko'rish mumkin. Barcha xalqlarda benazir aql, xushmuomalalik, mardlik, haqgo'ylik, mehnatsevarlik, vatanga muhabbat, xalqiga sodiqlik kabi xislatlar yuqori baholanadi. Maqollarda biz buni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Xalq maqollari eslab qolish uchun qulay shaklga ega bo'lib, etnopedagogik vosita sifatida ular ma'nosini kuchaytiradi. Maqollar xotiraga mahkam o'rnashadi. So'z o'yinlari, so'zlarning turlicha jarangi, qofiyadoshligi, ohangdorligi, goho shu qadar jozibali bo'ladiki, kishi oson esda saqlab qoladi.

Ayni holda she'riyat donolikni, tarbiya va uning hosilasi xulqni ifoda eta bilish faoliyati tajribasini asrash va targ'ib qilish vazifasini ado etadi. Maqolning asil vazifasi tarbiyadir, ular qadim zamonlardan buyon ta'lim vasitasi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Bir tomondan, ular ta'lim g'oyasidan iborat, ikkinchi tomondan tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ta'lim vazifasini bajaradi, xalq tasavvurlariga mos keluvchi tarbiya ta'sirining vositalari, uslublari to'g'risida hikoya qiladi, shaxsning ijobiy yoki salbiy jihatlarini baholaydi, shaxsning shakllanish maqsadlarini u yoki bu tarzda aniqlab, tarbiyalanishga chorlaydi, o'zlarining tarbiyachidek qutlug' vazifalarini mensinmaydigan katta yoshdagi odamlarni qoralaydi va hokazo.



Maqollarning eng keng tarqalgan shakli o'g'itdir. Ta'lim nuqtai nazaridan o'g'itlar uch toifaga bo'linadi. Bolalar va yoshlarni yaxshi xulqli bo'lishga, shu jumladan, muloyim bo'lishga undaydigan tanbehlar. Katta yoshdagi odamlarni o'ziga yarashadigan xulq-odobga o'rgatadigan tanbehlar va nihoyat, tarbiya natijalarini aks ettiruvchi, ta'lim maslahatlaridan iborat o'ziga xos nasihatlar. Bu, ayniqsa, ta'lim tajribasini umumlashtirishning o'ziga xos shakli sanaladi. Maqollarda bolalarning tug'ilishiga, ularning xalq hayotidagi o'rniga, tarbiya maqsadlari, vositalari va uslublariga, rag'batlantirish va jazolashga, o'qish mazmuniga, mehnat va ahloq tarbiyasiga, bolalarning ota-onalar fe'l-atvoridagi fazilatlarini meros qilib olishiga, atrof muhit va jamoatchilik fikrlarining ta'siriga daxldor ta'lim g'oyalari o'z aksini topgan. Bola tarbiyasida yomon tomonga og'ish yuz berishi ham mumkinligini to'g'ri his etgan xalq, ularni qayta tarbiyalashga oid qator metodlarni tavsiya etadi: "Buyumni suv bilan, insonni o'rgatish bilan tozalashadi". Lekin, Rudakiy ta'kidlaydiki: "Agar kim olmasa hayotdan ta'lim, unga o'rgatolmas hech bir muallim". Yoki: "Tarbiyasizlikning davosi bor, axmoqlikning davosi yo'q.", "Toptalgan o'tloqda ham gul unadi" va boshqalar shular jumlasidandir. Jamiyatning ma'naviy yetukligi, ijtimoiy ong teranligi, inson kamolotini ta'minlashda etnopedagogika asarlarning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun o'zbek xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot yo'lini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy yozuv va rasm chizish usuli ham axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashda keng qo'llaniladi. O'quvchilar ertak asosida qisqa hikoya yozish yoki rasm chizish orqali qahramonning fazilatlarini ifodalaydi va ularni amalda his qiladi. Shuningdek, axloqiy kartochkalar va muammoli vaziyatlar orqali o'rgatish metodlari ham samarali hisoblanadi. Ertakdagi qahramonlarning xatti-harakatlari bo'yicha kartochkalar taqdim etilib, o'quvchilar qaysi fazilatga mos kelishini tanlaydi yoki real hayotdagi muammoli vaziyatlar bilan bog'lab qarorlar qabul qiladi. Shu yo'l bilan bolalarda empatiya, mas'uliyat va axloqiy sezgirlik rivojlanadi.



Shunday qilib, boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligi darslarida xalq ertaklari va hikoyalardan foydalanish o'quvchilarning nafaqat o'qish ko'nikmalarini, balki axloqiy va insoniy qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu didaktik usullar orqali tarbiyalangan bolalar jamiyatda mas'uliyatli, mehribon va axloqiy qarorlar qabul qiladigan shaxs sifatida o'sadi.

### **Xulosa va tavsiyalar. Заключение (Conclusion/Recommendations)**

Boshlang'ich sinf ma'lum ma'noda bilimlar poydevorini mustahkam qurish davri. Yoshlik davridan boshlab o'z xalqining qadriyatlarini hurmat qilgan bolada kelajakda hech qachon yomonlik, turli xil salbiy illatlar paydo bo'lmaydi. Qadriyatlarni yaratuvchi ham, avloddan-avlodga yetkazuvchi ham xalqning o'zi. Shu bois ham xalq pedagogikasida qadriyatlar pedagogik jihatdan keng o'rganiladi va kichik yoshdan o'quvchi ongiga singdiriladi. Bu sohada yana keng qamrovli ishlar olib borilib, har bir darslikda qadriyatlarimizga nisbatan hurmat, milliy g'urur shakllantirilib borilsa buyuk ajdodlarimizga munosib avlodlar tarbiya topib, kamolga yetadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Aydarova U.B. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. 1- qism. Toshkent: "Novda Edutainment", 2023-y. – 80 b.
2. Toirova M.E. O'qish savodxonligi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. 1- qism. Toshkent. "Novda Edutainment", 2023. – 80 bet.